



## **PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALAR VA ULRNI MUSIQA DARSLARIDA QO'LLAY OLISH MAHORATI**

**Muallif:** Xolnazarova Marjona Farhod qizi<sup>1</sup>

**Affilyatsiya:** Samarqand viloyati Bulung'ur tuman MMTBga qarashli 1-IDUM 6-"D"sinf o'quvchisi<sup>1</sup>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.14512356>

### **ANNOTATSIYA**

Maqolada didaktikaning predmeti o`rgatish, o`rganish hamda ta`lim mazmunini pedagogik texnologiyalar asosida o'qitishning dolzarb masalalari muhokama etilgan.

**Kalit so'zlar:** pedagogik texnologiyalar, musiqa , fan , metod , cholg'u.

Mavzuning dolzarbliji: Pedagogik texnologiya – ta`lim usuli, ma'lum ma'noda ta`lim jarayoni, vositalari shakl va metodlari majmui. O'quv materiallarini tanlash, qayta ishlab, o'quvchilarni kuchi imkoniyatlari, fanni o'zlashtirish darajasi fanni spesifik tuzilishi xususiyatiga moslab shakli va hajmini o'zgartirish ham ta`lim texnologiyasiga daxildor. O'qituvchining ta`lim jarayoni texnologik metodlar asosida tashkil etishi ko'p jihatdan uning o'ziga bog'liqligi, bilimi ularni har birini tashkiliy tuzilishi xususiyatlarini yaxshi bilishi ta`lim samaradorligi ta'minlashning muhim kafolati bo'ladi.

Ilg`or pedagogik texnologiyalarning obyekti, predmeti, maqsad va vazifalari nimalardan iborat va ularni ta`lim jarayoniga tadbiq etish qanday natija beradi va ta`lim mazmunini takomillashishiga qanday ta`sir ko`rsatadi degan savol har bir fanni o'qitilishida ko`ndalang qo`yilayotganligi bejiz emas. Fan, texnika va axborot uzatish, almashish texnologiyalarini aql bovar qilmaydigan darajada tez va shiddatli rivojlanish jarayoni o`z navbatida ta`lim sohasida ham an`anaviy metodlarni yangicha zamonaviy va interfaol metodlar bilan boyitib borishni taqozo etmoqda.

Xo`sh, interfaol, modellashtirilgan metodlar qaysi jihatlari bilan ustunlik kasb etmoqda? Uning qanday turlari, tarkibiy tuzilishi, o`quv jarayonlarini tashkil etish shakl va vositalari, ilgari mavjud bo`lgan o'qitish (Ta`lim) metodlaridan nimasи bilan farqlanadi, uning samarasi nimalarda o'z isbotini topadi va uning monitoringi, baholash tizimi qanday olib boriladi degan savollarga har bir o'quvchi-murabbiy va pedagoglar tayyor bo'lishlari ular oldiga qo'yilayotgan eng muhim ijtimoiy buyurtma ekanligini anglash va bu savollarga javob berishga to'g'ri keladi.

Ko`rinib turibdiki ta`lim jarayonini bunday tashkil etish eng avvalo, bo`lg`usi o`qituvchilarni oily dargohlarda kasbga tayyorlash jarayonida inobatga olishni taqozo etadi. Shuning uchun oily ta`limda faoliyat olib boruvchi professor –o`qituvchilar o`zi dars berayotgan fan bo`yicha mashg`ulotlarni texnologiyalashtirilgan shaklda olib borishi, shogirdlarini mazkur faoliyatga tayyorlab borishilozim bo`ladi.



Ta`limga pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish bo`yicha amaliy tajribalarni o`rganish, kuzatish va tahlil qilish shuni ko`rsatmoqdaki, ta`limning deyarli barcha bo`g`inlarida mashg`ulotlarni interfaol metodlar asosida tashkil etish keng tus olmoqda. Bizningcha bu har bir darsda pedagogik texnologiyaning u yoki bu turini qo`llash kerak degan xulosani bermasligi kerak. Ilg`or pedagogik texnologiya qachon samarali.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Ibragimova X.S. Oliy ta'lim tashkilotlari talabalarida musiqiy-ritmik kompetensiyalarni rivojlantirish / PhD. .... dis. – 2022. – 45 b.

Ibragimova X.S. Vokal-xor ijrochiligi tarixi va rivojlanishi / Monografiya. – 2021. Toshkent

Болотов В.А. Компетентностная модель: от идеи к образовательной программе [Текст] / В.А.Болотов, В.В.Сериков // Педагогика. – 2003. – № 10. – С. 8-14.

Гершунский Б.С. Философия образования для XXI века: (В поисках практ.-ориентир. образоват. концепций) [Текст] / Б.С.Гершунский; Рос. акад. образования. Институт теории образования и педагогики. – М.: Совершенство, 1998. – 605 с.